

OLIY TALIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI AMALGA OSHIRISHDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINI RAQAMLASHTIRISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI

M.Parpiyeva¹

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

KEYWORDS

Raqamli iqtisodiyot, elektron tibbiyot xizmatlari, sog'liqni saqlash, tibbiyot tizimi, marketing, "mijoz yo'li", patsientning "moyilligi", "real klinik tajriba", "bemorning istiqboli", raqamli transformatsiya, rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, imkoniyatlari.

ABSTRACT

O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida "tibbiy xizmatlar" sohasini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalarini raqamli transformatsiya qilishda, tibbiyot xizmatlar sohasini rivojlantirish imkoniyatlari, sog'liqni saqlash tizimi, xususan meditsina xizmatlari bozorida raqobat kurashini ta'minlash orqali meditsina xizmati sifatini oshirish maqsadida mijoz (bemor)larni o'rganish tendensiyalariga bag'ishlangan bo'lib, unda har bir tendensiya bo'yicha tahlilni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullar keltirilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15288193**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli transformatsiyalashuvida har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Jumladan, xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya jarayoni ishlab chiqarish sohasiga qaraganda osonroq amalga oshiriladi, chunki xizmat ko'rsatish sohasida doimiy xarajatlar kamroq, tranzaksiya xarajatlari esa yuqori bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa, raqamlashtirish va o'sish ko'rsatkichlari hamma tarmoqda deyarli bir xil muvozanatda ortib boradi. Boisi, bu mamlakatlarda tarmoqlarning ko'pchiligi raqamli texnologiyalardan foydalanadi, ularning aloqa tarmoqlariga ulanish foizlari va aqlli texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichi borgan sari ortib bormoqda.

Jahonda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlantirishni integratsiyalashgan innovatsion ishonchli vasamarali tizimini yaratish jarayoni ketmoqda. Bugungi kundagi global sharoitda tibbiy xizmatlar tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanib, tibbiy xizmatlar tizimini modellari asosida tahlillar olib borishni taqozo etadi.

¹ Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Jahonda fuqarolar sog'ligini saqlashning zamonaviy texnologik asoslarini kuchaytirish, bunda pullik tibbiy xizmatlarlaridan keng foydalanish, raqamlashtirish

sharoitida global nuqtai nazardan tibbiy xizmatlar tizimini iqtisodiy tahlillar asosida modellashtirishning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hududlarda sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishda davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar bilan birga, davolash, profilaktika xizmatlarini raqamli texnologiyalardan foydalanib modellashtirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish tizimini takomillashtirish, aholiga birlamchi tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni sifatli ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

«Raqamli o'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, «Raqamli o'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish Chora-tadbirlari to'g'risida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda². Hozirgi vaqtda sog'liqni saqlashning keng ko'lamli tizimlarini, yaxlit korporativ tuzilmalar va kichik biznes kabi tibbiyot tashkilotlarini, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning biotibbiyot tizimlari va ilg'or texnologiyalarini rivojlantirishni boshqarish yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda. Jamiyatning kuchlari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida, uning farovonligi, hayot davomiyligi va sifatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Aholini sog'lom, faol, to'laqonli hayotning davomiyligini oshirish uchun, mamlakatimiz tibbiy xizmatlar tizimi, poliklinika va shifoxonalar, klinikalar shuningdek, tibbiy xizmatlar tashkilotlarining rivoji va tibbiy xizmatlar sifati yaxshi tashkil etilishi kerak. Buning uchun, tibbiy xizmatlari ko'rsatish korxonalari xarajatlarini hisobga olish va hisobot yagona tizimini yaratishdan boshlash kerak, bu haqiqatan ham pulning qayerga sarflanayotganini va hisob-kitoblarni tushunishga imkon beradi. Tibbiy xizmatlarning real qiymatidan va tibbiyot muassasalarining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda tibbiy xizmatlarni malakali va sifatli amalga oshirish, xizmat ko'rsatadigan tibbiy xizmatlar muassasalari, asosan budjet poliklinikalari, klinikalar, shifoxonalar, savdo tibbiyot markazlari oldida raqamlashtirishni kechiktirilishi kabi zarur bo'lgan muammolar yuzaga kelmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni, telemeditsina, "onlayn" murojaatlar, tibbiy xizmatlar muassasalarini raqamlashtirish bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi PF-6035 sonli "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891 sonli "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 23-fevraldagi PQ-5000-sonli "Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali

² <https://lex.uz/ru/docs/-5030957?ONDATE=06.10.2020>

tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi tibbiy xizmatlar tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli farmonlari, shuningdek sohaga oid boshqa qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, ijrosini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qiladi³.

Ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasining ahamiyati global o'tish jarayonlari bilan raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatga bog'liq. Bu istiqbollar qanday bo'lishini asosan ta'lim belgilaydi. Ta'limning raqamli transformatsiyasi konseptsiyasi turli pozitsiyalardagi bir qator mualliflar tomonidan tadqiq qilinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Raqamlashtirish" atamasi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi munosabati bilan paydo bo'ldi. Ta'limni raqamli transformatsiya qilish muammosiga E.L. Vartanova, M.I. Makseenko, S.S. Smirnovlar o'zlarining ilmiy xulosalarini berganlar. Ya'ni, ta'limni raqamli transformatsiya qilish -ta'lim mazmunining infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor va madaniy tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi kerak.

Medsina xizmatlari marketingining bugungi kundagi bosh konsepsiyasi iste'molchiga, ya'ni bemorga mo'ljallanganlikdir. Uning asosida esa, tibbiyot xizmatlari bozoridagi iste'molchilarnig xulq-atvorini o'rganish kabi muhim marketing vazifalari quyilmoqda. Har qanday sohadagi marketingda asosiy 4R instrumentlarining natija berishi o'sha sohaning o'ziga hos belgilarini ajratib olishni talab etadi. Mazkur vazifani yechish maqsadida tadqiqotlarimizni sog'liqni saqlash tizimidagi marketing tadqiqotlarining, ya'ni bemordagi qimmatdorlikni namoyon bo'lishini o'rganish, xizmat sifatidan qoniqishdagi "mijoz yo'li"ni shakllanishi, bemorning "moyilligi", "real klinik tajriba"ning shakllanishi kabi muammolarni hal etishiga ta'sir etuvchi asosiy trendlarni belgilab olish maqsadida statistik tahlillar, kuzatuv va intervyu metodlaridan foydalanildi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim muhitining asosiy tarkibiy qismlari, shubhasiz, hozirgi davrda raqamli axborot ta'lim muhitini shakllantirish va uni umumta'lim tizimiga integratsiyalash jarayonida elektron ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim -ta'lim muhitini shakllantirishda va raqamli axborot ta'lim muhitini shakllantirishda muhim jihatdir. Bu o'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini, bilish va obyektiv faoliyat subyekti sifatida aniqlash asosida o'quvchi shaxsining rivojlanishi yoki o'zini-o'zi rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida har kimning o'z faoliyatini tanlash huquqiga ega bo'lishiga asoslanadi.

Elektron ta'lim muhiti -ta'limning muqobil shakllarini o'rganish orqali rivojlanishning o'ziga xos yo'nalishi hisoblanadi. Raqamli transformatsiya - bu shunchaki ta'lim islohoti emas. Bu ta'limning barcha darajalariga ta'sir qiluvchi ko'p yillik faoliyat dasturidir. Xizmat ko'rsatish va moddiy ishlab chiqarishda bo'lgani kabi, ta'limni raqamli o'zgartirish bo'yicha ishlar ham dasturni amalga oshirishning barcha bosqichlarida natijaga yo'naltirilgan bo'lishi, ham ta'lim muassasalari ishining sifatini oshirishga ko'mak berishi kerak.

³ www.lex.uz

Raqamli texnologiyalar talabalarning ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga, ularda barcha zarur qobiliyatlarni shakllantirishga, mavjud barcha raqamli vositalar, materiallar va xizmatlardan faol (ongli va ijodiy) foydalanish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim muassasalarining raqamli transformatsiyasining asosi raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish eng samarali bo'lgan ta'lim jarayonini shaxsiylashtirilgan tashkil etishga o'tishdir. Ta'lim tashkilotlari ishini o'zgartirish ta'limning raqamli transformatsiyasi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani o'zgartirishni talab qiladi.

Buni amaliy bajarmay turib, ushbu bazani keng huquqiy eksperiment davomida innovatsion raqamli ta'lim platformalarida sohada har tomonlama sinovdan o'tkazmasdan va takomillashtirishsiz amalga oshirish mumkin emas.

Raqamli texnologiyalar ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning boshqa sohalariga faol ta'sir ko'rsata boshlagan to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida raqamlashtirish tashkilotlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish strategiyasidir. Raqamlashtirishda ko'plab end-to-end texnologiyalar ishtirok etadi (5G, narsalar Interneti, bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlarni tahlil qilish, taqsimlangan kitoblar, sun'iy intellekt, VR / AR). Katta ehtimol bilan, ta'lim sohasida ishlab chiqarish korxonalari uchun ko'proq mos keladigan narsalar Interneti texnologiyasi kamroq ta'sir qiladi. Ammo sun'iy intellekt, kata ma'lumotlarni qayta ishlash, taqsimlangan reestr, raqamli platformalar kabi texnologiyalar ta'lim sektori uchun kalit bo'ladi va ilmiy maqola mualliflari sifatida Petrova N.P. va Bondareva G.A. bu raqamli texnologiyalar katta pedagogik salohiyatga ega.

Raqamli transformatsiya endi texnologiya hisobiga emas, balki nomoddiy aktivlarni ko'paytirish, inson salohiyatini rivojlantirish, xodimlarning raqamli vakolatlarini oshirish, raqamli madaniyat va to'g'ri tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Ta'limni raqamlashtirish muvaffaqiyatining asosiy omili nafaqat moliyaviy resurslar, balki raqamli transformatsiyani amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqishdir. Shunday qilib, muvaffaqiyat ta'lim muassasasida raqamli transformatsiyani o'z vaqtida rasmiylashtirish bilan belgilanadi.

Raqamlashtirishning to'liq siklini amalga oshirishning muvaffaqiyati strategiyani to'g'ri aniqlash va raqamli transformatsiya yo'nalishiga bog'liq. Ushbu bosqichdagi asosiy vazifa raqamlashtirish uchun yuqori salohiyatga ega faoliyat sohalarini aniqlashdir. Raqamlashtirishni rasmiylashtirish raqamli etuklikni aniqlashning bir qismi sifatida tayyorgarlik bosqichiga kiritilgan va juda muhim jarayondir.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni ta'lim sohasiga bilvosita qanday ta'sir ko'rsatayotganini kuzatishimiz mumkin. Universitetlar kelajakdagi ishchi kadrlarni tayyorlaydigan ish beruvchilarning ehtiyojlariga moslashgan holda o'zgarishga majbur. Va bunday o'zgarishlarni ta'lim faoliyatining o'zgarishi bilan ham bog'lash mumkin, bu nafaqat texnik yoki axborot xarakterini, balki tashkiliy va madaniy jihatlarni tasdiqlaydi. Yangi yoki qo'shimcha ta'lim dasturlari paydo bo'lishini barcha yetakchi universitetlarda uchratish mumkin. Masalan, yangi dasturlar yaratildi:

Transformatsiyaning asosiy xususiyati raqamli aktivlar yoki xizmatlarni yaratishdir. Axborot-ta'lim muhiti doirasida bular yangi raqamli ta'lim mahsulotlari bo'lishi mumkin:

onlayn kurslar va videoma'ruzalar, ta'lim dasturlari va klassik ta'lim yondashuvlari bilan birgalikda foydalaniladigan platformalar. O'qituvchilar va talabalar platforma orqali muloqot qilishadi, o'rganish va talabalarni baholashning butun jarayoni ham unda amalga oshiriladi. Bu oliy o'quv yurtlarining ilmiy faoliyatiga ham tashkiliy, ham madaniy jihatdan tatbiq etilishi mumkin bo'lgan ta'limni raqamlashtirish variantlaridan biri xolos.

Xulosa. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar bilan bog'liq vaziyat bosqichma-bosqich hal qilinmoqda, lekin raqamli transformatsiya davrida ta'limning turli shakllarini rivojlantirish va o'zlashtirishni davom ettirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi PF-6035 sonli farmoni
2. Parpieva Malika Muxamadjonovna. O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida "elektron tibbiy xizmatlar" tizimining rivojlantirish istiqbollari. "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali maxsus soni.
3. Parpieva Malika Muxamadjonovna. "Raqamli iqtisodiyot va tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari" Marketing jurnali 2024-yil, nayabr. №9-son.
4. Parpieva Malika Muxamadjonovna. "Raqamli iqtisodiyot va tibbiy xizmatlar marketingida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari". Raqamli taraqqiyot va bioiqtisodiyot N1(2024 noyabr)
5. S.D.Saidaxmedova. "Raqamli transformatsiyalashuv jarayonlari: muammolar va yechimlar". "Экономика и социум" №11(114) 2023 www.iupr.ru
6. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957?ONDATE=06.10.2020>
7. www.lex.uz